

Xoliqov R.Y. Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrası professori

Farg'ona viloyati yerlarining meliorativ holatiga ta'sir etuvchi omillar

**FACTORS AFFECTING THE MELIORATIVE CONDITION OF
FERGANA REGION**

Annotatsiya. Maqolada Farg'ona viloyatining sog'oriladigan yerlarining meliorativ holati va unga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar bayon qilingan.

Annotation. The article describes the meliorative state of irrigated lands in Fergana region and the natural and anthropogenic factors influencing it.

Kalit so'zlar: yer fondi, melioratsiya, tabiiy omillar, antropogen omillar, sho'rlanish, meliorativ baholash.

Keywords: land fund, melioration, natural factors, anthropogenic factors, salinization, land reclamation evaluation

Kirish. Bugungi kunda yerlarni meliorativ holati qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Respublikamiz, shu jumladan viloyat aholisi sonining doimiy ortib borishi qishloq xo'jaligi maydonlarning umumiy kamayib borishi barobarida qishloq xo'jaligi maydonlarning doimiy yetishmasligi holatlari yuzaga kelmoqda. Farg'ona viloyatida 2025 yilning 1-yanvariga ko'ra 4 mln 181000 aholi mavjud bo'lib, bu o'tgan shu davrga nisbatan 2% o'sishni ta'minlagan. Viloyat bo'ylab umumiy yer maydoni 675.3 ming gektarni tashkil etib shundan 368.7 ming gektar sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Respublikamizda sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, yerlarni unumdorligi orttirish masalalari bugungi kunda dolzarb muammo hisoblanib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining "Sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish ishlarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 401 son 30.06. 2025 yil Qarorida ham bu masalani ijobiy hal etish maqsadida amaliy dasturlarni ishlab chiqish va uni joriy etishga qaratilgan ko'rsatmalar mavjud.

Asosiy qism. Farg'ona viloyati hududi va uning qishloq xo'jaligi maydonlarni meliorativ holatini belgilovchi bir qismga tabiiy va antropogen omillar mavjuddir. Tabiiy omillar ichidagi muhimi viloyat hududning geografik joylashuvi, iqlimi, gidrologik omillari va yer yuzasining holati hisoblanadi. Ayniqsa relyefining.... shuning holati yer osti suvlarining belgilab beradi. Shunga ko'ra adirlararo pastqamliklar, adir orti qiya tekisliklari va konussimon yoyilmalarning qo'yi qismlari yer osti suvlarining ko'tarishi zonasi hisoblanadi. Ayniqsa markaziy Farg'ona hududida sizot suvlar og'ir drenajlanadi va yer yuzasiga yaqinlashadi. Bunga esa relefning pastqamligi va nishablagining kamligi, Sirdaryo o'zaniga yaqinlagi sabab bo'ladi.

Farg'ona viloyati yerlarining meliorativ holatiga ta'sir etuvchi tabiiy omillarga daryo va soyliklarning suv rejimini aytib o'tish joiz. Shuning bilan birga suvdan sog'orishga foydalanish davridagi sog'orish normasini saqlagan holda tejash ko'rsatgichi 36% ga teng bo'lganda vodiy bo'yicha sog'orishga 10,1 km³ suv o'rniga 6,7 km³ suv sarflanadi. [3. 86-87]. Suv tanqisligi Farg'ona viloyatining shimoliy hududlariga to'g'ri keladi. Aynan shu hududlarning suv tanqisligi kamaytirish maqsadida markaziy Farg'onaga qo'rilgan suv omborining ahamiyati katta, lekin suv ombor atrofidagi tabiiy o'zgarish hududlari botqoqlashib bormoqda.

Farg'ona viloyati yerlarining meliorativ holatiga ta'sir etuvchi antropogen omillardan muhimi sug'orish rejimi va uslublari hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatdagi asosiy sug'oriladigan maydonlarda an'anaviy egatlar va jueklar orqali sug'orish amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birga aytish joizki,

sog'orish manbalari bo'lgan katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanalidan filtraluvchi yer osti suvlari ham og'ir drenajli markaziy Farg'ona hududida yuqoriga ko'tarilib 1-1,5m li sathni hosil qilmoqda. Bundan tashqari Sirdaryoning suv rejimini o'zgarib turishi ayniqsa Beshariq, Yangiqo'rg'on tumanlarining meliorativ holatini belgilab beradi.

Sog'oriladigan yerlarining meliorativ holatini belgilashda sizot suvlarning sathi va tuz rejimi ham asosiy omillardan biridir. Sizot suvlarining chuqurligi bo'yicha Farg'ona viloyatida 0,1,0 m gacha bo'lgan yerlar 3887 ga ni, 2025 yilda esa 2760 ga ni tashkil etgan. Sho'rlanish ko'rsatkichi bo'yicha ham viloyat hududida kamayish tendensiyasi yuzaga kelgan, masalan sho'rlanish ko'rsatkichi 3-5 g/l ga teng maydonlar 2000-yilda 6506 ga ni, 2025 - yilda 3008 ga ni tashkil etgan. Bugungi kunda sog'oriladigan yerlarining meliorativ holatini o'zgarishi sog'oriladigan yerlar maydoning qisqarishi, sog'orish tizimlari va texnologiyalarining takomillashuvi, ikkinchi tomondan suv resurslarining yetishmasligi fonida yuzaga kelmoqda. Global iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarining kamayib borishi nafaqat viloyatimiz, balki respublikamiz uchun ham katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. Respublikamiz hududiga kirib keluvchi suv manbalarining suv miqdorini anamal o'zgarishi tufayli uning resurs salohiyati kamayib bormoqda.

Xulosalar

Yerlarni meliorativ holatini doimiy nazorat qilish, monitoring o'tkazish, o'simliklarni diversifikatsiya qilish orqali meliorativ holatni barqarorlashtirish mamlakatimiz miqyosidagi strategik vazifalardan hisoblanadi. Bu borada "Sog'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini shakllantirish va amalga oshirishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yili 13.XII-dagi Qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-yarmidagi PQ-sonli qarorini bajarish yuzasidan 2019-yil 29XII dagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlarda keltirilgan ko'rsatmalarni bajarish, davlat dasturlarini amalga oshirish tufayli yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, biologik mahsuldorligini oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 13 XII dagi Qarori
2. Xoliqov R.Yi. Farg'ona vodiysi monografiy. T. " Navro'z" nashriyoti, 2020 - 168 bet